

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



2023 y.

**60310400-IQTISODIY XAVFSIZLIK ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida besh yil ish
stajiga ega bo'lgan fuqarolarni (abituriyentlarni) sirtqi ta'lim shakliga
tabaqalashtirilgan to'lov kontrakt asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha
suhbat o'tkazish va baholash**

DASTURI

SAMARKAND – 2023

Tuzuvchilar:

I.I.Ayubov – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrası mudiri, dotsent, PhD

L.N.Xalikova – SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi”
kafedrası dotsenti, DSc

Taqrizchilar:

B.Sh.Safarov – SamDAQI moliyaviy-xo‘jalik ishlari
bo‘yicha prorektor, i.f.d., professor

N.U.Arabov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU
“Inson resurslarini boshqarish” kafedrası mudiri,
i.f.d., professor

Ushbu dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan
tasdiqlangan (2023 yil “30” avgustdagi 1-sonli majlis bayoni).

KIRISH

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyunda "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-sonli farmoyishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 4-noyabrda "Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 675-son qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini yuritish, cheklangan moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish mutaxassislardan chuqur iqtisodiy bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Xo'jalik yuritish bu asosan optimal va rasional qarorlar qabul qilish bilan bog'likdir. Bu ishlar mulk shaklidan, turlaridan qat'iy nazar barcha xo'jalik obyektlari uchun bir xil qarashlarni talab qiladi. Shu bois iqtisodiyotni rivojlantirish borasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

60310400-"Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar

Иқтисодий хавфсизлик бу мамлакат иқтисодиётининг асосий ҳимоя тизими бўлиб, бу тизим давлатни ташқи ва ички иқтисодий хавф-хатарларни кўра билиш ва шу хатарлардан ҳимояланиш йўллари йўганиди. Иқтисодий хавфсизлик ривожланаётган ёки ривожланмаган, умуман давлатнинг қанақа ҳолатдалигига қарамасдан ҳар бир давлатнинг барқарорлиги, иқтисодий ўсишини ҳимоялаши учун энг муҳим тизим ҳисобланади.

Иқтисодий хавфсизлик миллий иқтисодиёт даражасида макроиқтисодий категория ва муайян мамлакат миллий иқтисодиётини тавсифлайди, бозор тизимида хатар борлигидан ва бундан ҳатто миллий иқтисодиёт ҳам холи бўлмаслигини, ундан сақланиш зарурлигини билдиради.

Иқтисодиёт глобаллашган, экспорт ва импортнинг миллий иқтисодиётга таъсири кучайган шароитда иқтисодий хавфсизликни ўз ишлаб чиқариши билан таъминлаб бўлмайди. Шундай шароитда экспорт-импорт алоқаларининг мунтазамлигини стратегик шерикчилик асосида таъминлаш мамлакат иқтисодиёти хавфсизлигини кафолатлайди.

Мамлакатимизда турли хил иқтисодий таҳдидларга қарши чора-тадбирлар, ислохотларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини янада жадаллаштириш натижасида мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолишга эришиб келинмоқда.

Мамлакат иқтисодиётини турли таҳдидлардан ҳимоя қилиш, жамият ҳаёт фаолиятининг бир қанча соҳаларида кечадиган жараёнларни, шу жумладан коррупция ва хуфёна иқтисодиёт билан боғлиқ бўлган масалаларни ўрганиш ва уларни бартараф этиш бўйича тавсиялари ишлаб

чиқиш, чора–тадбирларни амалга ошириш орқали хавфсизликни таъминлаш ҳозирги шароитларда муҳим аҳамият касб этади. Айниқса глобал жаҳон иқтисодиётида ҳали – бери сақланиб қолаётган жиддий муаммолар шароитида ушбу масалаларнинг долзарблиги янада ортади. Бундай шароитда мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, унга бўладиган турли таҳдидларни олдини олиш масаласи юзага келади.

Мамлакатни ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ривожланишида иқтисодий хавфсизликнинг аҳамияти каттадир. Шу боисдан иқтисодий хавфсизликни таъминлаш ва мамлакат иқтисодиётига хавф солувчи омилларга қарши курашиш ўта муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Ушбу масалаларни амалга оширишда “Иқтисодий хавфсизлик” фанида ўрганиладиган мавзулар ва назарий-амалий масалалар муҳим аҳамият касб этади.

“Иқтисодий хавфсизлик” фани иқтисодий хавфсизликнинг шаклланиш механизмини, иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг ташкилий-иқтисодий, меъёрий, илмий ва услубий асосларини ўрганади.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati bo'yicha savollar

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-iyul kuni poytaxtimizdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig'ilishi rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv mohiyati va mazmuni.
3. O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirilishi munosabatlarini mazmun mohiyati.
4. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi ulushini ko'paytirishda iqtisodiyotning ahamiyati.
5. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishda iqtisodiyotning ahamiyati.
6. Iqtisodiyotni avtomatlashtirilgan tizimini zamonaviy dasturiy ta'minotlarining qo'llash asosida modernizasiya qilish ahamiyati.
7. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish ulushini ko'paytirishning ahamiyati.
8. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishning ahamiyati.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarniing tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
10. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan kreditlar mazmuni va mohiyati.

11. O‘zbekiston Respublikasining “innovation faoliyat to‘g‘risida” 24.07.2020-yildagi O‘RQ-630-son Qonunining mohiyati va mazmuni.
12. Aholining ishsiz yoshlar va ayollarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda ularning bandligini ta‘minlash yo‘llari.
13. Tadbirkorlik subektlarining eksport va import amaliyotlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mazmuni va mohiyati.
14. Biznesda innovation mahsulotlar yaratish va ularni tijoratlashtirishni rivojlantirish.
15. Mahalllarda xizmatlar turlarini rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda startap g‘oyalar va biznes-inkubatorlar.
16. O‘zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari.
17. O‘zbekistonda innovation iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari
18. 2018-yil 6-avgustdagi PQ-3899-son “Ilmiy va innovation faoliyatni integrasiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorning mazmuni va mohiyati.
19. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarda iqtisodiyotning o‘rni.
20. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning ahamiyati.
21. 2022 yil 21 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
22. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy vazifalar.
23. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil qilish, ularni zarur infratuzilma bilan ta‘minlash chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
24. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 31-mart kuni makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, biznesni qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
25. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish hamda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning o‘rni.
26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida islohotlar jarayonida xalq manfaatlarini ro‘yobga chiqarish borasida bajarilgan ishlarning natijasi to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari.
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan siyosati.
28. O‘zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish borasida siyosatining mohiyati, mazmuni va ahamiyati.
29. Sh.M.Mirziyoyev “Mulkdorlar sinfini shakllantirish va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash” to‘g‘risida Farmon mazmuni va mohiyati.

30. Sh.M.Mirziyoyev Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida Farmon mazmuni va mohiyati

31. 2018-yil 27-iyundagi PQ-3777-son "X,ar bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish tugrisida» qarorning mazmuni va mohiyati

32. 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyixalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning kushimcha chora-tadbirlari tugrisida"gi qaror mazmuni va mohiyati

33. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4862-sonli "2020-2021-yillarda iqtisodiy o'sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazmuni va mohiyati

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazmuni va mohiyati

35. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini ta'minlash mazmuni va mohiyati

36. 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-sonli "O'zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash choratadbirlari to'g'risida" Farmoni mazmuni va mohiyati

37. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.02.2022-yildagi 72-son O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida mazmuni va mohiyati

60310400 - "Iqtisodiy xavfsizlik" ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarining mavjudligi bo'yicha savollar

1. Иқтисодий хавфсизликнинг концептуал асослари.
- 2.Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг тамойиллари.
- 3.Иқтисодий хавфсизликнинг таркибий элементлари.
- 4."Хавфсизлик", "Давлатнинг миллий хавфсизлиги" тушунчаларининг талқини.
- 5.Ўзбекистоннинг миллий хавфсизлиги концепцияси.
- 6.Ўзбекистоннинг бой ресурс имконияти Ўзбекистон иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш шарти.
- 7.Мамлакатнинг иқтисодий салоҳияти, миллий бойлик.
- 8.Иқтисодий хавфсизлик: тушунчаси, объектлари, субъектлари, турлари, кўрсаткичлари, мезонлари.
- 9.Иқтисодий хавфсизликнинг моҳияти ва аҳамияти.
- 10.Иқтисодий хавфсизликнинг намоён бўлиш шакллари.

11. Миллий хавфсизлик тизимида иқтисодий хавфсизликнинг ўрни.
12. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий хавфсизлигининг концептуал асослари ва стратегияси.
13. Иқтисодий хавфсизликни таъминлаш шартлари.
14. Иқтисодий хавфсизлик даражалари.
15. Иқтисодий хавфсизликка асосий таҳдидлар: иқтисодий манфаатлар ва таҳдидлар.
16. Иқтисодий хавфсизликка ички таҳдидлар.
17. Иқтисодий хавфсизликка ташқи таҳдидлар.
18. Иқтисодий хавфсизликнинг чегаравий қийматлари.
19. Иқтисодий хавфсизликнинг макро-иқтисодий индикаторлари: иқтисодий ўсиш, тўлиқ бандлик, иқтисодий самарадорлик, иқтисодий эркинлик, даромадларнинг оқилона тақсимланиши, савдо баланси.
20. Иқтисодий тизимнинг даврий ривожланиш қонуниятларига боғлиқ таҳдид омиллари.
21. Иқтисодиётнинг ўсиши ва ривожланиши мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий белгилари.
22. Илмий-техникавий хавфсизлик-нинг иқтисодий хавфсизликка таъсири.
23. Фан-техника ютуқларига асосланган тармоқлар (ишлаб чиқариш соҳалари) иқтисодий хавфсизлиги.
24. Реал секторни ривожлантириш концепциялари ва Давлат дастурлари.
25. Иқтисодиёт тармоқларини инновацион ривожлантиришнинг миллий моделлари ва дастурлари.
26. Реал секторни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш истикболлари.
27. Инвестициянинг иқтисодий мазмуни.
28. Иқтисодий хавфсизликни таъминлашда инвестицияларнинг ўрни.
29. “Инвестиция иқтисодиётнинг юраги”.
30. Инвестиция манбалари: Ички инвестициялар, хорижий ва тўғридан тўғри инвестициялар.
31. Инвестицион муҳит. Инвестицион жозибадорликни ошириш имкониятлари.
32. Корхона иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг инвестицион салоҳияти.
33. Бозор иқтисодиёти шароитида инвестициялардан фойдаланишнинг хориж тажрибалари.
34. Инновациянинг ижтимоий-иқтисодий мазмуни.
35. Инновациялар - иқтисодий хавфсизлик омили.
36. Инновацион таваккалчиликларни баҳолаш.
37. Давлат инновацион сиёсатининг барқарор иқтисодий тараққиётга таъсири.
38. Мезо ва микродаражадаларда инновацион фаолликни таъминлаш шартлари.

- 34.Мамлакатда ижтимоий-иқтисодий хавфсизликни таъминлашда инновацияларнинг ўрни.
- 35.Ахборот хавфсизлигининг иқтисодий мазмуни.
- 36.Ахборот хавфсизлигини таъминлаш чора-тадбирлари.
- 37.Хизматлар бозори ва унинг хавфсизлигини таъминлаш шартлари.
- 38.Бизнес-разведка ва унинг турлари. Бизнес-разведка қўлланиладиган соҳалар ва унинг афзалликлари.
- 39.Бенчмаркинг жараёнлари ва натижалари. Стратегик бенчмаркинг.
- 40.Ахборот хавфсизлигининг моҳияти ва унга таҳдидлар.
- 41.Ахборот ресурсларига таҳдидлар. Ахборот хуружи.
- 42.Ахборот хавфсизлигини таъминлаш механизми. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш йўналишлари.
- 43.Ахборотни ҳимоялашнинг давлат тизими.
- 44.Корхона (фирма) хавфсизлигини таъминлашнинг мақсади, вазифалари ва тамойиллари.
- 45.Корхона (фирма) хавфсизлигини таъминлашни ташкил қилиш ва бошқариш.
- 46.Корхона (фирма)нинг хавфсизлик хизмати, унинг тузилиши.
- 47.Корхона (фирма)нинг тижорат сири ва ҳимоялаш.
- 48.Корхонанинг иқтисодий манфаатлари. Корхона фаолият қоидалари.
- 49.Корхонанинг иқтисодий хавфсизлик стратегияси.
- 50.Корхона иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар.
- 51.Корхона иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш ва унинг тамойиллари.
- 52.Саноат миллий иқтисодий хавфсизликнинг ҳал қилувчи омили.
- 53.Саноат хавсизлиги.
- 54.Қазиб олувчи ва ишлов берувчи саноат тармоқлари.
- 55.Жамият ишлаб чиқарувчи кучларининг ривожланиш динамикаси.
- 56.Саноатнинг генезиси.
- 57.Мамлакатнинг халқаро меҳнат тақсимотидаги ўрни ва роли.
- 58.Саноатни ривожлантиришнинг халқаро тажрибалари.
- 59.Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда саноатни ривожлантириш истиқболлари.
- 60.Энергетика хавфсизлиги ва уни таъминлаш йўналишлари. Электр энергиясини барқарор ривожлантириш истиқболлари. Қайта тикланувчи энергияга ўтиш.
- 61.Ўзбекистон агросаноат комплексининг моҳияти.
- 62.Озиқ-овқат хавфсизлигининг иқтисодий аҳамияти ва уни таъминлаш муаммолари.
- 63.Мамлакат озиқ-овқат хавфсизлиги.
- 64.Аграр сиёсат ва иқтисодий хавфсизлик. Аҳоли фаровонлиги ва истеъмол даражасини оширишда аграр соҳанинг ўрни.

- 65.Агросаноат комплекси ривожии мамлакат иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг бош омили.
- 66.Аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини таъминловчи асосий тармоқлар.
- 67.Молиявий тизим ва иқтисодий хавфсизлик.
- 68.Солиқлар давлат молиявий ва иқтисодий хавфсизлигининг омили.
- 69.Молиявий муассасалар барқарорлигини таъминлаш. Капитал “қочиши” тушунчаси ва унинг иқтисодий моҳияти.
- 70.Пул муомаласи соҳасидаги иқтисодий таҳдидлар. Пул тизими компонентлари.
- 71.Молия, пул-кредит тизимида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш дастаклари.
- 72.Банклар хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Инфляцияни “жиловлаш”. Чет ел капиталини жалб этиш.
- 73.Давлат қарзининг моҳияти. Давлат қарзи – давлат томонидан ички маблағни ва хориждан маблағни харажат қилиши натижасида вужудга келган мажбуриятлари йиғиндиси.
- 74.Давлат ички ва ташқи қарзларини бошқаришни оптималлаштириш.
- 75.Ташқи қарзларни олиш давлат дастури, ички қарзларни олиш давлат дастури.
- 76.Давлат қарзининг иқтисодий хавфсизликка таъсири.
- 77.Ташқи қарз ва иқтисодий хавфсизлик.
- 78.Хуфёна иқтисодиётнинг мазмуни.
- 79.Хуфёна иқтисодиёт тушунчаси ва тузилиши. Хуфёна иқтисодиётнинг вужудга келиш сабаблари.
- 80.Хуфёна иқтисодиётнинг турлари. Хуфёна иқтисодиёт оқибатларининг статистикаси.
- 81.Хуфёна иқтисодиётга қарши курашда давлатнинг чора-тадбирлари. Хуфёна иқтисодиёт секторлари.
- 82.Фиктив иқтисодиёт. Хуфёна истеъмол.
- 83.Хуфёна иқтисодиётга қарши кураш усуллари. Индикаторлар услуби.
- 84.Хуфёна иқтисодиётга нисбатан ҳуқуқий чора-тадбирларни амалга ошириш.
- 85.Ноқонуний бизнес ва тадбиркорликни олдини олиш. Ёлғон тадбиркорликка қарши кураш.
- 86.Жиноий хуфёна иқтисодиётга қарши кураш.
- 87.Коррупциянинг ижтимоий-иқтисодий мазмуни.
- 88.Коррупция-иқтисодий муаммолар манбаи.
- 89.Коррупциянинг келиб чиқиш сабаблари, шарт-шароитлари ва иқтисодий оқибатлари.
- 90.БМТнинг Коррупцияга қарши кураш бўйича универсал конвенцияси.

- 91.Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашнинг қонуний асослари.
- 92.Коррупцияга қарши курашда халқаро ҳамкорликнинг меъёрий-ҳуқуқий жиҳатлари.
- 93.Коррупцияга қарши кураш стратегияси.
- 94.Халқаро иқтисодий хавфсизликнинг моҳияти унинг вужудга келиш сабаблари ва ижтимоий-иқтисодий оқибатлари.
- 95.Ташқи иқтисодий хавфсизлик.Глобаллашув ва халқаро иқтисодий интеграциялашув.
- 96.Миллий иқтисодий хавфсизлик, унинг вазифалари ва функциялари.
- 97.Жаҳон иқтисодий тизимида миллий иқтисодиётнинг тутган ўрни.
- 98.Мамлакатимиз ташқи иқтисодий сиёсати тамойиллари.
- 99.Иқтисодиётнинг очиқлигини таъминлаш.
- 100.Ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш.Мамлакат иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш.
- 101.Мамлакат иқтисодий манфаатларини ҳимоя қилиш ва хавфсизлигини таъминлашда давлатнинг вазифалари.
- 102.Мамлакат хавфсизлигини таъминлашни бошқариш тизими.
- 103.Мамлакатнинг ички иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар.

BAHOLASH ME'ZONLARI

Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalar;
- belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

Yuqorida ko'rsatilgan savollar yuzasidan o'tkazilgan suhbat jarayonida ***olish mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori 100 ballni tashkil etadi va baholash yaxlitlangan holda butun sonlarda ifodalanadi. Bunda har bir savol uchun maksimal 25 balldan ajratiladi.***

Suhbat natijalari bo'yicha to'plagan umumiy ball quyidagi mezonlarga asoslanadi.

T/r.	Baho	Xususiy ball
1	A'lo	91,0-100
2	Yaxshi	71,0-89,0
3	Qoniqarli	60,0-70,0
4	Qoniqarsiz	0-59,0

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi **55 balldan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.**

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi taxriri).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022
4. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий ҳавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма. -Т.: "Ноширлик ёғдуси", 2019.- 620 б.
5. Абулқосимов Ҳ.П. Давлатнинг иқтисодий ҳавфсизлиги. Ўқув қўлланма. -Т.: "Академия", 2012.- 352 б.
6. Абулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие.-Т.: Ilmiy-TehnikaXboroti-Press, 2016.-168 с.
7. Шульц, В. Л. Безопасность предпринимательской деятельности в 2 ч. Часть 1 : учебник для академического бакалавриата / В. Л. Шульц, А. В. Юрченко, А. Д. Рудченко ; под ред. В. Л. Шульца.-М. : Издательство Юрайт, 2018. - 288 с.
8. Белов, С. В. Экономическая безопасность в 2 ч. Часть 2 : учебник для СПО/С.В.Белов.-5-е изд., перераб. и доп.- М.: Издательство Юрайт, 2018.- 362 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

9. Абулқосимов Ҳ.П., Расулов Т.С. Мамлакат иқтисодий ҳавфсизлиги ва рақобатбардошлигини таъминлашнинг илмий-назарий асослари.- Т.:LESSON PRESS, 2018.-156 бет
10. Абулкасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие.-Т.: ТашГИВ, 2017.-322 с.
11. Абулқосимов Ҳ.П., Расулов Т.С. Озиқ-овқат ҳавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография.Т.: "Фан ва технология", 2017. - 152 б.
12. Гайдар А.П. Безопасность жизнедеятельности. Учебное пособие. // Источник: [http:// www.newsocio.ru/nspgs-333-1.html](http://www.newsocio.ru/nspgs-333-1.html).

Internet saytlari

- 13.www.ziyounet.uz
- 14.www.edu.uz
- 15.www.e-ilm.uzwww.uzinfocom.uz